

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**



**“Lotin tili va tibbiy terminologiya”
FANI O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 900000 – Sog’liqni saqlash va
ijtimoiy ta’minot
Ta’lim sohasi: 910000 - Sog’liqni saqlash
Ta’lim yo’nalishlari: 60910300 – Pediatriya

Andijon – 2025 yil

Fan/modul kodi LTTT 1204		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1-2	Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 2	
1	Fanning nomi	Auditoriya amaliy mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Lotin tili va tibbiy terminologiya	60		60	120
2	<p>I. Fanning mazmuni.</p> <p>Fanning o'qitishdan maqsad – talabalarda ta'lim - tarbiya, qonun va qoidalardan hamda didaktik tamoyillaridan kelib chiqib, davolash, professionalta'lim (davolash ishi) fakultetlari talabalarining“Lotin tili va tibbiy terminologiya”modulini asosini o'zlashtirishga, shuningdek bu bilimlarni amaliyotda qo'llash, shakllantirishga va talabalarga tibbiy atamalarni lotin va yunon dubletlarini o'rganish yo'li bilan yunaltirilgan o'z kasbiy mahoratlarini kengaytirish va rivojlantirish, ularning kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishlarida kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish</p> <p>Fanning vazifalari:</p> <p>Talabalarining ko'nikma va malakalarini o'zlashtirgan holda kasbiy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi;</p> <ul style="list-style-type: none"> - talabalarining mazkur yo'nalishdagi bilimlarini xalqaro standartlarga muvofiq ravishda egallashini ta'minlash; - bakalavriyat talabalarini to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish; - grammatik formalarni tushunish va atamalarning ma'nosini bilish; -mustaqil ravishda lug'atsiz yoki lug'at bilan anotomik, klinik va farmatsevtik atamalarni tarjima qila olish va tuzishga qaratilgan. <p>Dastur o'z ichiga nazariy va amaliy bilimlarni kattagina hajmni olgan bo'lib, talabalar tibbiy atamalarni keyingi kurs maxsus modullarida qo'llash, tushunish va tadbiq etishda yordam beradi.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (amaliy mashg'ulotlar)</p> <p>Fan bo'yicha amaliy mashg'ulotlar quyidagi mavzular bo'yicha o'tkaziladi.</p>				

1-mavzu. Tibbiy terminologiyaga kirish. Lotin alifbosi. Unli va undosh harflar. Diftong va digraflar. Harf birikmalari. Til kasbiy yo'nalishi Kasbiy til terminologiyasi Kasbiy matnning grammatik va stilistik xususiyatlari (Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti- № 163).

Fanning kirish qismi o'qituvchi tomonidan olib boriladi va lotin tili rivojlanishi tarihi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Lotin alifbosi o'qituvchi tomonidan qo'llanma bilan audirovaniya yordamida tushuntiriladi. Jadval yordamida e, I, y, a, o, u unllarning o'qilishi qoidalarini tushuntiradi. Diftonglar; ae, oe, au, eu, undoshlar; c, l, k, s, ss, x, z, ; xarf dirikmalari, digraflar tushuntiriladi. Mavzuni mustahkamlash qo'llanma asosida olib boriladi.

2-mavzu. Ot: grammatik kategoriyalar, lug'at shakli haqida tushuncha, otlarning turlanishi, rodini aniqlash. Negiz. Tibbiyot tili Anatomik pozitsiyalar, rejalar, bo'limlar, jins xususiyatlari (Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti- № 163).

Yangi mavzu anatomik atama tarkibi va ot va uning grammatik kategoriyalari o'qituvchi tomonidan qo'llanma yordamida tushuntiriladi. Otlarning turlanishi, lug'at shakli, negizni aniqlash tushuntiriladi.

3-mavzu. Moslashmagan aniqlovchi ishtirokida anatomik terminlar.

Moslashmagan aniqlovchi qo'llanma bo'yicha izohlanadi va yangi mavzuni mustahkamlash mashqlar yordamida olib boriladi. Yangi leksik minimum o'qituvchi va talabalar bilan birgalikda talaffuz etiladi. Masalan: ala, ae, f; septum, i, n; musculus, i, m; os, ossis, n

4-mavzu. Sifat: grammatik kategoriyalar. Lug'at shakli. Sifatlarning 1-2 guruhi.

Yangi mavzuda kirish sifatlarning grammatik kategoriyalari qo'llama va jadvallar yordamida tushuntiriladi. Sifatlarning ikki guruhi ya'ni I guruh sifatlari uchta qo'shimchaga ega :us, a, um va II guruh sifatlari ikkita qo'shimchaga ega: is, e ekanligi haqida ma'lumotlar beriladi. .Lug'at shakli sifatlarning turlanishi qo'llanma yordamida izohlanadi. Moslashgan aniqlovchi mavzusi ham talabalarga misollar yordamida tushuntiriladi.

5-mavzu. Sifatlar ishtirokida murakkab anatomik atamalar tuzish .

Mavzuni mustahkamlash qo'llanmada berilgan mashqlar mashqlar asosida

bajariladi. Sifatlar 1-3 turlanishlar bo`yicha aturlanishi, 1-guruh sifatleri 1 va 2-turlanish bo`yicha, 2-guruh sifatleri 3 turlanish bo`yicha turlanishi haqida ma`lumotlar beriladi va mashqlar yordamida mustahkamlanadi.

6-mavzu. Sifat darajalari: Qiyosiy daraja, yasalishi va turlanishi, qo`shimchalari.

Yangi mavzu sifat darajalari qiyosiy darajadagi sifatleri hosil bo`lishini tishuntirish qo`llanma asosida olib boriladi. Ularning lug`at shakli va mujskoy, jenskiy, sredniy roddagi qo`shimchalar farqlanadi va jadval yordamida noto`g`ri sifat darajalari tushuntiriladi. Yangi leksik minimumni oq`ituvchi talabalar bilan birgalikda qo`llanma yordamida talaffuz qilinadi. Mavzuni mustahkamlash mashqlar asosida bajariladi.

7-mavzu. Sifat darajalari: Orttirma daraja, yasalishi va turlanishi, qo`shimchalari.

Sifatlarning orttirma darajasi mavzusi o`qituvchi tomonidan qo`llanma yordamida beriladi. Orttirma daraja qo`shimchalarining farqli tomonlari va har hil negizdan tashkil to`gan sifatlar tushuntiriladi. Masalan maximus ,a,um; minimus,a,um; supremus ,a,um. Orttirma darajadagi siatlarning otlar bilan moslashishi va yangi leksik minimum kiritiladi. Yangi leksikani o`qishda digraflarning talaffuziga e`tibor beriladi Masalan: peritoneum,i,n; caecum,i,n; oesophagus,i,m. Mavzuni o`zlashtirishda mashqlar bajariladi.

8-mavzu. Og`zaki nazorat ishi (Colloquim).

O`tilgan bo`lim bo`yicha og`zaki nazorat ishi o`tkaziladi.

9-mavzu. Otlarning 3- turlanishi. Mujskoy roddagi otlar. 1-jild Muskul-skelet tizimi (Oksford universiteti № 3) . Mushak to`qimasi. Mushaklar anatomiyasi. (Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti- № 163).

Yangi mavzu otlarning III turlanishi haqida ma`lumotini va ularning negizini aniqlash. o`qituvchi tomonidan qo`llanma yordamida beriladi. Otlarning turlanishi takrorlanadi. Otlarning III turlanishi mujskoy roddagi otlar, istisno so`zlar, ularning bosh va qaratqich kelishigidagi qo`shimchalari qo`llanma va doskada

o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. III turlanish mujskoy roddagi otlarning sifatlar bilan moslashishi va muskullarning vazifasiga ko'ra nomlari beriladi. Yangi leksik minimum talabalar bilan birgalikda talaffuz qilinadi. Mavzuni mustahkamlash uchun mashqlar og'zaki yoki yozma bajariladi.

10-mavzu . Otlarning 3-turlanishi. Jenskiy roddagi otlar. Volume 3 Bosh va bo'yin (Oksford universiteti № 3).

Yangi mavzu otlarning III turlanishi haqida ma'lumotini va ularning negizini aniqlash. o'qituvchi tomonidan qo'llanma yordamida beriladi. Otlarning turlanishi takrorlanadi. Otlarning III turlanishi mujskoy roddagi otlar, istisno so'zlar, ularning bosh va qaratqich kelishigidagi qo'shimchalari qo'llanma va doskada o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

11-mavzu. Otlarning 3-turlanishi.Sredniy roddagi otlar. 2-jild Ko'krak va qorin. (Oksford universiteti № 3).

III turlanish mujskoy roddagi otlarning sifatlar bilan moslashishi va muskullarning vazifasiga ko'ra nomlari beriladi. Yangi leksik minimum talabalar bilan birgalikda talaffuz qilinadi. Mavzuni mustahkamlash uchun mashqlar og'zaki yoki yozma bajariladi.

12-mavzu. Otlarning Nominativus Pluralis shakli.

Sifat har doim o'zi aniqlayotgan otga "Nominativus singularis"da moslashishi misollar yordamida tushuntiriladi va mashqlar orqali mustahkamlanadi.

13-mavzu. Sifatlarning Nominativus Pluralis shakli

Sifat har doim o'zi aniqlayotgan otga "Nominativus singularis"da va "Genetivus singularis" da moslashishi misollar yordamida tushuntiriladi va mashqlar orqali mustahkamlanadi.

14-mavzu. Nominativus Pluralis ishtirokida murakkab anatomik atamalar.

Otlarning Nominativus Pluralis jadval yordamida takroran tushuntiriladi. Har bir kelishikka alohida to'xtalib, bosh va qaratqich kelishikning birlik va ko'plik shakllariga alohida to'xtalib o'tiladi.

15-mavzu. Anatomik terminologiya bo'yicha umumlashtiruvchi dars.

Lotin tili grammatikasiga doir mavzular takrorlanadi va murakkab anatomik soʻz birikmalari tarjima qilish koʻnikmalari mustahkamlanadi.

16-mavzu . II. Boʻlim. Klinik terminologiyaga kirish. Klinik atamalar yasash usullari. Suffiksatsiya(-itis, -osis, -oma, -ismus). Prefiksatsiya usuli.

Klinik atamashunoslik. Klinik atamalarning strukturaviy turlari. Soʻz tarkibi. Soʻz yasash usullari. Lotin va yunon soʻz yasovchi suffikslari. Klinik atamashunoslikda koʻp ishlatiladigan preffikslar bilan tanishtiriladi va misollar yordamida mustahkamlanadi.

17-mavzu.. Klinik terminlar yasovchi atama elementlar. Aʻzo va tana qismlarini ifodalovchi yunon – lotin dubletlari. Ilmni, fanni, diagnostik usullarni, davolashni, iztirobni, kasalliklarni ifodalovchi yunon atama elementlar.

Klinik atamashunoslik. Klinik atamalarning strukturaviy turlari. Soʻz tarkibi. Soʻz yasash usullari. Lotin va yunon soʻz yasovchi suffikslari.

18-mavzu . Yunon– lotin dubletlari. Organlardagi va toʻqimalardagi patologik oʻzgarishlarni, terapevtik va xirurgik usullarni ifodalovchi yunon atama element.

Yunon –lotin atama elementlari asosida soʻz yasash boʻyicha mashqlar bajarish. Aʻzolar, toʻqimalar, tana qismlarini ifodalovchi yunon-lotin dubletlari yordamida atamalar hosil qilish va mavjud atamalarni toʻgʻri tarjima qilish koʻnikmasini shakllantirish.

19-mavzu. Yunon–lotin dubletlari va yakka AElar. Toʻqimalar, organlar, suyuqliklar, sekretlar, jins xamda yoshni ifodalovchi yunon–lotin dubletlari. Funktsional va patologik xolat xamda jarayonlarni ifodalovchi yakka AElar.

Organlardagi va toʻqimalardagi patologik oʻzgarishlarni terapevtik va xirurgik usullarini ifodalovchi yunon atama elementlarini qoʻllay olish koʻnikmasini shakllantirish va ular yordamida tuzilgan atamalarni toʻgʻri tarjima qilish koʻnikmasini mustahkamlash.

20-mavzu Funktsional va patologik holat, hamda jarayonlarni ifodalovchi yakka atama elementlar.

Toʻqimalar, organlar, suyuqliklar, sekretlar, jins hamda yoshni ifodalovchi yunon-lotin dubletlarini qoʻllay olish koʻnikmasini shakllantirish va ular yordamida tuzilgan atamalarni toʻgʻri tarjima qilish koʻnikmasini mustahkamlash.

21-mavzu. Turli fizik xususiyat, sifat, munosabat va boshqa belgilarni

ifodalovchi yakka atama elementlar.

Turli fizik hususiyat,sifat ,munosabat va boshqa belgilarni ifodalovchi yakka atama elementlarni qo`llay olish ko`nikmasini shakllantirish va ular yordamida tuzilgan atamalarni to`g`ri tarjima qilish ko`nikmasini mustahkamlash.

22-mavzu. Klinik terminologiya bo'yicha og'zaki nazorat ishi (Colloquium).

O`tilgan bo`lim bo'yicha og`zaki nazorat ishi o`tkaziladi.

23-mavzu III. Bo'lim. Farmatsevtik terminologiyaga kirish. Dorivor moddalarning trivial nomlari. Tarkibiy qismchlar. Dori shakllari. Farmasevtik terminlar strukturasi.

Dorishunoslik terminologiyasi.Dori-darmon nomlari, dorivor moddalarning trivial va ilmiy nomlari.Trivial nomlardagi tarkibiy qismlar.Dori shakllari haqida qisqacha ma'lumot.Preparat nomlarida dori shaklining ifodalanishi. Farmatsevtik terminlarni va tarkibiy qismchalarni ishlatilishini tushuntiriladi va mashqlar yordamida mustaxkamlanadi.

24-mavzu. Fe'l va uning grammatik kategoriyalari. Standart retseptura formulirovkalari fe'llar bilan.

Fe'l uning grammatik kategoriyalari. Standart retseptura formulirovkalari fe'llar bilan birga kelish holati bo'yicha mashqlar bajariladi.

25-mavzu. Standart retseptura formulirovkalari ko'makchilar bilan. Retsepturada eng ko'p qo'llanadigan iboralar.

Standart retseptura formulirovkalari ko'makchilar bilan ishlatilishini tushuntiriladi va mashqlar yordamida mustaxkamlanadi.

26-mavzu Retsept strukturasi. Retsept yozish qoidalari.

Retsept yozish qoidalari tushuntiriladi. Qo'llanmada berilgan retseptlar o`zbek (rus) tilidan lotin tiliga tarjima qilinadi. Dori nomlarini yozishda imlo qoidalariga alohida e`tibor qaratish kerakligi ta`kidlanadi.

27-mavzu. Retsepturada kimyoviy elemenlar. Kislotalar. Oksidlar.

Kimyoviy elementlarning nomlari lotin tilidan iolingan ekanligi etirof etiladi, retseptlarda kimyoviy element nomlarining yozilish qoidalari tushuntiriladi. Kislota nomlarini yozish bo'yicha bir qancha mashqlar bajariladi.

28-mavzu. Retsepturada tuzlarning nomlanishi.

Retsepturada uchrovchi oksid va tuz nomlari tanishtiriladi. Imlo qoidalariga

alohida urg`u berib mashqlar yordamida mavzu mustahkamlanadi.

29-mavzu. Retseptda asosiy qisqartmalar.

Retsepturada qo`llaniladigan qisqartmalar jadvali tanishtiriladi va mavzu mashqlar yordamida mustahkamlanadi.

30-mavzu. Farmasevtik terminologiya bo'yicha muvallashtirilgan mashg'ulot.

O`tilgan bo`lim bo'yicha og`zaki nazorat ishi o`tkaziladi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi

1. Berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
2. Modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
3. Ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash;
4. Vaziyatli va muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
5. Keys (real vaziyatlar va vaziyatli masalalar asosida case-study) yechish;
6. Grafik organayzerlash ishlab chiqish va to'ldirish;
7. Krossvordlar tuzish va yechish;
8. Prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustaqil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'limga tavsiya etilayotgan mavzular.

1. Lotin tili tarixi
2. Zamonaviy tillarda lotinshunoslik
3. Rim sonlari;
4. Rim kalendari
5. Rim ismlari
6. Vizantiya tibbiyotida numizmatika
7. Meditsina va san'at
8. Tibbiyot emblemalari.
9. Meditsina tarixida lotin- yunon mifologiyalari
10. Yunon-lotin epigrammalarida tibbiyot va salomatlik
11. Lotin iboralarining hayotimizning barcha javxalarida tutgan o'rni

	<p>12. Talabalar leksikasi 13. Qadimigi Rim faylasuflari, yozuvchilar va shifokorlari 14. Anatomik iboralarning tarjimai 15. Rim va Gretsiyada davolashning qadimiy usullari 16. Antik davr tabiblari 17. Qadimigi Gretsiya va Rimda kadimiy jaroxlik usullari 18. Antik davr texnologiyalari. 19. Qadimigi Gretsiyada kosmetologiyani qo‘llanishi. 20. Zamonaviy kosmetologiya. 21. Retsept tarixi 22. Dorivor o‘simliklar 23. Dorivor o‘simliklar nomlari 24. Retseptdagi qisqartmalar 25. Gippokrat xayoti 26. Qadimigi sharq faylasuflari 27. Lotin yunon old qo‘shimchalar 28. Abu Ali Ibn Sino xayoti 29. “Gvadeamus” talabalar gimni xaqida 30. Eng ko‘p qo‘llaniladigan yunon suffikslari</p>
3	<p>V.Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar). Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: abstrakt fikrlash, analiz, sintez qilish qobiliyati;</p> <ul style="list-style-type: none"> • o‘z ustida ishlash; • o‘z-o‘zini anglash, • o‘zini tarbiyalash, • ijodiy salohiyatdan foydalanish. • Axborot bibliografik resurslar, tibbiy-biologik terminologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan xolda axborot xafsizligini asosiy talablarini hi sobga olgan holda kasbiy faoliyatning standart vazifalarini hal etishga tayyor bo‘lish.
4	<p style="text-align: center;">VI.Ta`lim texnologiyalari va metodlari.</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; • tezkor savol-javoblar; • guruxlarda ishlash; • jamoa bo`lib ishlash; • taqdimotlar tayyorlash;

VII. Kreditlarni olish uchun talablar.

Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi quyidagi nazoratturlari orqali aniqlanadi: joriy nazorat (JN); -sinov.

JORIY NAZORAT (JN)

Joriy nazoratda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetentsiyalarni egallaganlik darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Lotin tiliva tibbiy terminologiya moduli bo'yicha JN og'zaki va yozma shakllarda, o'rgatuvchi-nazorat mashqlar, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalarni ishlash va uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqashakllarda o'tkazilishi mumkin.

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interfaol usullarida ishtirokning faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi hisobga olinadi.

Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanadi. Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball.

Joriy nazorat uchun ajratilgan 4 kredit

Sinov – 0 kredit (o'tilishi majburiy)

Talaba 1 semestrda belgilangan kreditlarni to'plagandan keyin semestr yakunida sinovli vazifani topshiradi va o'tish (saralash) balidan o'tsagina 2 semestrda o'tadi. Talaba 2 semestrda belgilangan kreditlarni to'plagandan keyin semestr yakunida Sinovga kiritiladi.

Joriy nazoratda saralash (o'tish) ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy nazorat uchun sinovgacha bo'lgan muddat beriladi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakul'tet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Amaliy mashg'ulotlar yakunida modul bo'yicha joriy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. SHu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakul'tet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

	Baholash turi	Maksimal ball	Kredit soni
1.	Auditoriyadagi o'quv mashg'ulotlarni baxolash (JN)	100	4
2	Yakuniy nazorat (YAN)		0
3	Yakuniy nazorat (YaN) (o'tilishi majburiy) sinov.	100	0
	JAMI	100	4

Modulga ajratilgan 4 kreditni talaba JN davomida yig'adi.

JORIY NAZORAT (JN)JNda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Tibbiyot kasbiga kirish moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, ilmiy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi. Talabalar fan bo'yicha 100 ballik tizimda baxolanadi. JN kafedrada og'zaki so'rov (80%) va masofaviy ta'lim platformasida test (20%) shakllarida o'tkaziladi. Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart va o'qituvchi tomonidan talabaning JN og'zaki so'rov shaklidan olgan bali shu kuni o'zida platformaga qo'yiladi.

Joriy nazorat uchun 4 kredit ajratiladi:

Talaba har bir bo'limdan belgilangan kreditlarni to'plagandan keyingina yakuniy nazoratga kiritiladi.

Modul bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS baho	ECTS ning ta'rifi		Baho	Ta'rifi
86-100	A	"a'lo" - a'lo natija,	Modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni	5	a'lo

		<p>minimal hatoliklar bilan</p>	<p>qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo‘llay olishi;</p> <p>Modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlarni to‘liq va chuqur o‘zlashtirishi;</p> <p>Amaliy mashg‘ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo‘lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo‘lishi;</p> <p>Berilgan atamalarni erkin va to‘g‘ri o‘qish. Anatomik , klinik va farmatsevtik atamalarni tugri va xatosiz tarjima qilsa. Mashgulotlar davomida yangi leksik so‘zlarni hammasini a’lo darajada o‘zlashtirgan bo‘lsa, grammatik qoidalarni to‘g‘ri belgilagan bo‘lsa (rod, son, kelishik). Lotin tili atamalarini to‘liq bilsa. Turli strukturadagi tibbiyot atamalarini amalda tuza olsa. Ot va sifatlarni qo‘shimchalarini to‘liq bilsa Otlarni Bosh kelishik va Qaratkich kelishigi birlik va ko‘plikdagi 5 ta turlanishi va1-2 gurux sifatlarini bosh va qaratqich kelishigi birlik va ko‘plik qo‘shimchalarini yaxshi bilsa. Aniq tushunishi va tibbiyot atamalarini to‘liq tarjima qilsa. Har qanday qiyinlikdagi anatomik klinik va farmatsevtik atamalarni tarjima qila olishi</p>		
--	--	---------------------------------	---	--	--

			kerak. Topshiriqqa yuqori mustaqil analitik yondosha bilishi. Aforizm va kasbiy atama va iboralarni a'lo darajada bilishi kerak. Klinik dubletlarni yaxshi bilshi klinik kasaliklarni ma'nosini berishda xato qilmasa. Retseptni chiroyli va xatosiz yozishni bilsa		
81-85	B	"juda yaxshi" - o'rtadan yuqori natija, ayrim xatoliklar bilan	<p>Modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqti chida ilmiy va amaliy masalalarni echish da samarali qo'llay olishi;</p> <p>Modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;</p> <p>Amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi; Berilgan atamalarni orfografik xatolar bilan tarjima qilsa , atamalarni tuzulish ketma- ketligini yetarli darajada bilmasa. Leksik minimumlarni 85%-80% gacha yoddan bilsa. Lotin atamalarida ot va sifatlarni qushimchalarini yetarli darajada bilsa, grammatik qoidalarni yetarli darajada bilsa. Yerli darajada tushunmaslik va atamalarni to'liq tarjima qila olmasa. Lotin tilida tibbiy</p>	4	yaxshi

			<p>atamalarni tuzish, bilim va ko'nikmasi yetarli darajada bo'lmasligi. 85 % gacha aforizm va tibbiy atamalarni yoddan bilsa. Klinik dubletlarni yetarli darajada bilsa kasaliklarni ma'nosini yetarli darajada to'g'ri bilsa. Farmatsevtik atamalarni yetarlicha bilsa, retseptni xatosiz va chiroyli yoza olsa.</p>		
71-80	C	"yaxshi" - o'rtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan	<p>Modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni amaliy masalalarni yechishda qo'llay olishi; Modul dasturida tavsiya etilgan asosiy adabiyot doirasida o'zlashtirishi; Standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi; Amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda biroz xatoliklarga yo'l qo'yishi. Berilgan atamalarni orfografik xatolar bilan tarjima qilsa, atamalarni tuzulish ketma-ketligini yetarli darajada bilmasa. Leksik minimumlarni 75%-80% gacha yoddan bilsa. Lotin atamalarida ot va sifatlarni qushimchalarini yetarli darajada bilsa, grammatik qoidalarni yetarli darajada bilsa. Yetarli darajada tushunmaslik va atamalarni to'liq tarjima qila olmasa. Lotin tilida tibbi</p>		

				yatamalarni tuzish, bilim va ko'nikmasi yetarli darajada bo'lmasligi. 80 % gacha aforizm va tibbiy atamalarni yoddan bilsa. Klinik dubletlarni yetarli darajada bilsa, kasalliklarni ma'nosini yetarli darajada tugri berilmasa. Farmatsevtik atamalarni yetarlicha bilmaslik, retseptni xatosiz va chiroyliyoza olsa.;		
60-70	D	"qoniqarli" - sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan	Berilgan savollarni yarmidan kupiga javob bera olmasa. Orfografik xatolar bilan tarjima qilingan bulsa. Turli kiyinchilikdagi lotin atamalarini tuzishda gramatik xatolarni kilsa. Lotincha tibbiy atama va leksik birliklarni yarmini bilmaslik. Materiallarni 60 % gachabilish, kuchsiz o'qish orfografik atamalarni to'liq darajada bilmaslik. Lotin tili atamalarini tuzishda grammatik qoidalarni bilmaslik. Tibbiyot atamalarini tarjima qilishni 2-3 xatolarga yo'l qo'ysa. Klinik dubletlarni yarmidan ko'pini bilmaslik. Klinik dubletlarni yetarli darajada tarjima qilsa. Klinik dubletlarni yetarli darajada tarjima qilsa. Farmatsevtik atamalvрни yarmidan ko'pini bilmasa, retsept yozishda xatoliklarga yo'l qo'ysa.	3	Qoni qarli	
55-59	E	"o'rta" - minimal natijaga teng	Modulning tayanch tushunchalarini qiyinchilik bilan o'zlashtirish va uni amaliy masalalarni yechishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yish;			

				<p>Modul dasturida tavsiya etilgan asosiy adabiyot doirasida qiyinchilik bilan o'zlashtirishi;</p> <p>Amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda sustlik qilishi, vazifalarni bajarishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yishi;</p> <p>Berilgan savollarni yarmidan kupiga javob bera olmasa .</p> <p>Orfografik xatolar bilan tarjima qilingan bulsa. Turli qiyinchilikdagi lotin atamalarini tuzishda gramatik xatolarni qilsa.</p> <p>Lotincha tibbiy atama va leksik birliklarni yarmini bilmaslik. Materiallarni 50 % gacha bilish, kuchsiz o'qish orfografik atamalarni to'liq darajada bilmaslik. Lotin tili atamalarini tuzishda grammatik qoidalarni bilmaslik. Tibbiyot atamalarini tarjima qilishni 3-4 xatolarga yo'l qo'ysa.</p> <p>Klinik dubletlarni yarmidan ko'pini bilmaslik.</p> <p>Kasaliklarni ma'nosini tugri bilmaslik. Farmatsevtik atamalvni yarmidan kupini bilmasa, retsept yozishda xatoliklarga yo'l qo'ysa</p>		
31-54	FX	"qoniqar-siz" - minimal darajadagi bilim-larni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlash-	<p>Davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;</p> <p>Tibbiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa;</p> <p>Amaliy mashg'ulotlarda</p>	2	Qoni qarsiz	

			<p>tirishi zarur</p> <p>passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa; Modulning tayanch tushunchalarini qiyinchilik bilan o'zlashtirish va uni amaliy masalalarni yechishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yish; Berilgan atamalarni tuzishda leksikani bilmaslik. Darsga tayyorlanmasdan kelsa. Tarjima qilishda qo'pol hatolarga yo'l qo'ysa . Berilgan vazifa bajarilmagan bo'lsa tarjima qilishda kupol hatolarga yo'l qo'ysa. Sifat va otlar ishtrokida ketma-ketligida atamalarni tuzishni bilmasa, bosh va qaratqich kelishigini qo'shimchalarini bilmasa. Ot va sifatlarni moslashuvida xatolar qilsa. Klinik dubletlari xakida tushunchaga ega bulmasa, kasaliklarni ma'nosini umuman bera olmasa. Farmatsevtik atamalarni bilmasa, retsept yozish</p>		
0-30	F	<p>"mutloq qoniqarsiz" to'liq qayta o'zlashtirishi lozim</p>	<p>Davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;</p> <p>Terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa;</p> <p>Amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa;</p> <p>Amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega</p>		

				bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa		
<p>YAN modul yakunida kafedrada og'zaki so'rov (80%) va masofaviy ta'lim platformasida test (20%) shaklida o'tkaziladi. Bunda talabalarning kompetensiyalarni, amaliy ko'nikmalarni egallash darajasi va nazariy bilimlari tekshiriladi.</p>						
6	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Rustamova S.Sh., Saydullayeva M.A., Abdullayeva R.M. Lotin tili va tibbiy terminologiya. Darslik. Toshkent. 2017yil. 2. Чернявский М.Н.. Латинский язык и основы медицинской терминологии. Учебник. Москва. 2007г. 3. MakKinnon, P. & Morris, J. Oksford Funktsional anatomiya darsligi, Oksford universiteti nashriyoti, 2005 (Oksford universiteti №3) <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Xodjayeva L.U., Zohidova X.A., Rahmatullayva Z. Z. Lotin tili. Darslik 2005 y. Andijon. 2. Abdurakhmanova M.U. Greek-Latin clinical terminology. Educational manual. 2022. Andijan. 3. Kondratyev D., Vylegzhanina O., Knyazeva J., Latin and Fundamentals of Medical Terminology. Grodno. 2005 g. 4. Бондаренко. Latinskiyazykiosnovymeditsinskoyterminologii. Uchebnik. Kiev. 2007g. 5. Turdiyeva K., Hamraqulova M., Berezovskaya R., Mahkamov M. Tibbiy terminologiya bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent. 2018 y. 6. Turdiyeva K., Berezovskaya R., Hamraqulova M., Mahkamov M. Tibbiy terminologiya bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent. 2016y. 7. Slovarlatino-greko-russko-anglo-uzbekskixmeditsinskixterminov. Tashkent. 2017 Agentstvopointellektualnoysobstvennosti Respubliki Uzbekistan DGU 04860 <p style="text-align: center;">5.3.Internet saytlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali. 2. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Qonunhujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 3. www.tma.uz 4. www.ziyonet.uz 5. www.info@tma.uz 					

	<p>6. www.info @minzdrav.uz 7. https://books.google.co.uz 8. http://latin-online.ru/sbornik/ 9. www.meddean.luc.edu 10. http://knigi.tor2.org/ 11. www.moodle.sammi.uz 12. http://elib.bsu.by/ 13. http://www.gumer.info/ 14. http://sovtor.org/ 15. http://www.bbc.co.uk/sn/tvradio/programmes/horizon/broadband/(Oksford universiteti №3) 16. https://www.amazon.co.uk/Oxford-Textbook-Functional-Anatomy-Musculo-skeletal/dp/019262816X(Oksford universiteti №3) 17. https://farabi.university/programs (Al-Farabi Qozoq milliy universiteti - № 163).</p>
7	Andijon davlat tibbiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8	<p>Fan/modul uchun mas`ullar: Abdurahmonova Madina Ulug`bekovna O`zbek tili va adabiyoti tillar kafedrasida PhD dotsenti. Haitbayeva Gulbahor Ikramovna katta o`qituvchisi Abdullayeva Xurshida Ne`matjonovna O`zbek tili va adabiyoti tillar kafedrasida o`qituvchisi</p>
9	<p>Taqrizchi: Qodirova M.R. Farg`ona jamoat salomatligi instituti Lotin tili, pedagogika va psixologiya kafedrasida professori / DSc. Qaxarov Z.K. ADTI klinik anatomiya kafedrasida dotsenti.</p>